



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№4/1

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис ин ститутути

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

Ўзбекистон худудида

тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институту ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash choralarini o'rganish va takomillashtirish	73
Дурбек Мирзаахмадов Хизмат кўрсатиш корхоналари рақобат устунлигини таъминлаш механизмлари	78
Bobir Xo'jaqul o'g'li Qilichov Xizmat ko'rsatish sohasi bo'lgan sug'urta va turizm korxonalari samaradorligining qiyosiy tahlili	82
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Дилбар Хасановна Асланова, Нигина Тажиевна Юсупова Оценка перспектив создания кластера в туристском секторе экономики Республики Узбекистан	87
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Сардор Олимович Рахимов Сотрудничество между туроператорами и гостиницами как залог успешной продажи гостиничных номеров в Узбекистане	94
Farrux Oltinboyevich Husanov Turistik oqimlar va transport masalalarini modellashtirish	98
Suxrob Ramazonovich Bobokalonov Buxoro viloyatida joylashgan Afshona qishlog'ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasini amalga oshirish istiqbollari	102
G'ayrat Soyibovich Raupov Turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli va diversifikatsiya matritsasi	110
Shohista Bobobekovna Toyirova O'zbekistonda ekologik turizmning yangi turizm yo'nalishi sifatida rivojlanish tendensiyasi	115
Камилла Бахромовна Суюнова Худудий брендни шакллантириш мақсадида давлат-хусусий шериклик алоқаларини ривожлантириш истиқболлари	119
Latofat Tolibovna Yo'ldosheva Samarqand viloyati turizm sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari	123
Матлуба Абдиманабовна Куймуратова Жаҳонда туризмнинг ҳолати ва ривожланиш истиқболлари	127
Kamol Sharifovich Yuldashev Xalqaro tajriba asosida O'zbekistonga mustaqil turistlarni jalb qilishda viza siyosatining ta'siri	132
Азиза Пирмаматовна Махмудова Туризм соҳасини инновацион ривожлантириш йўллари	137
Marjon Komilovna Sharifova Ziyorat turizmini strategik rivojlantirish va tahlil qilish yo'llari	140
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Умар Худайбердиев Оила муносабатларидаги муаммолар ва уларнинг ечимлари	145
Акрам Одилович Очилов, Жаббор Махмудович Суюнов Критерии оценки деятельности субъектов предпринимательства в регионах	147
Шавкат Собирович Олтаев Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ошириш йўллари	152

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni. – <https://lex.uz/docs/5073447>
2. Басюк А.С., Мануйлова Ю.И. Инновации в индустрии гостеприимства // Электронный сетевой политематический журнал «Научные труды КубГТУ». 2016. № 14. С. 175-185.
3. Донскова Л.И., Редкин А.Г., Отто О.В., Беспалова Н.Н. Приоритеты инновационной деятельности на предприятиях социально-культурного сервиса и туризма: российский опыт // Сервис в России и за рубежом. 2019. Т. 13.
4. Бармина К.В. Инновационная деятельность сферы услуг как форма структурных и институциональных изменений // Актуальные проблемы гуманитарных и социально-экономических наук. 2017. Т.5. №11(11). С. 12-14.
5. Djalilov F.A. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari // Diss. iqt. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). – Samarqand: SamISI, 2023. 109-130-b

Ф.Джалилов	F.Jalilov
Факторы реализации инновационной деятельности в сфере сервиса	Factors of implementation of innovative activities in the sphere of service
<p>Аннотация: в данной статье изучается разработка новых услуг в сфере обслуживания, их реализация, факторы развития инновационной деятельности, взаимное сотрудничество потребителей услуг и предприятий сферы услуг, предоставление инновационных услуг, факторы реализации инновационной деятельности в сфере услуг.</p> <p>Ключевые слова: инновационная деятельность в сфере сервиса, венчурные фирмы, маркетинг взаимоотношений, инновации, внедрение инноваций, научно-технические разработки.</p>	<p>Abstract: This article studies the development of new services in the service sector, their implementation, factors of development of innovative activities, mutual cooperation of consumers of services and enterprises in the service sector, provision of innovative services, factors of implementation of innovative activities in the service sector.</p> <p>Keywords: innovative activities in the service sector, venture firms, relationship marketing, innovations, implementation of innovations, scientific and technical developments.</p>

Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova – SamISI, “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası assistenti

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDAGI KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH CHORALARINI O‘RGANISH VA TAKOMILLASHTIRISH

<p>Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash, xavflarni oldini olishd hamda iqtisodiy xavfsizlikka erishishda ularni chuqurroq o‘rganish, bugungi kundagi muammolarning yechimlarini tahlil qilish bo‘yicha bir qancha fikrlar keltirilgan. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalash hamda xavfsizlikka erishishda turli yondashuvlar o‘rganilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: iqtisodiy xavfsizlik, risklarni boshqarish, xavfsizlikni ta‘minlash shtabi, samarali raqobat strategiyasi, axborot xavfsizligi, globallashtirish va xalqaro tahdidlar, xavflarni sug‘urtalash, ichki va tashqi tahdid, moslashuvchanlik.</p>

Kirish. Bugungi global jarayonlar avj olib borayotgan bir paytda jahonda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiyotning samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Xizmatlar sohasining rivojlanishida hududiy iqtisodiyot, shuningdek aholining hayot kechirishi bilan bog‘liq manfaatlarga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy xarakterdagi bir qator xatarlar mavjuddir. Jahonning nufuzli ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini o‘rganish bo‘yicha yetakchi muassasalarda xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash, faoliyat barqarorligini ta‘minlovchi omillar hamda iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi ijtimoiy, institutsional va infratuzilmaviy xatarlarni aniqlash, mavjud ilmiy-texnik, resurs va inson salohiyatidan samarali foydalanish, iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlar sharoitida, innovatsion faollik, aholining turmush tarzi darajasi o‘zgarishi bilan kechadigan jarayonlarning iqtisodiy xavfsizlikka ta‘sirini tadqiq etish yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borish juda muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasining milliy iqtisodiyot tizimida tez rivojlanib borayotgan tar-

moqlaridan biri sifatida xizmatlar sohasining YIMdagi ulushi 39,1% ni tashkil etadi. “...2023 yilda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 470,3 trillion so‘mni tashkil etib, o‘shir sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan 113,7 foiz”. Biroq, so‘nggi 5 yillikda mamlakatimizda jami xizmatlar hajmida shaharlarning ulushi 3,1 foiz bandga kamaygan. Respublikamiz hududlarida xizmat ko‘rsatishning yetarlicha tashkil qilinmaganligi, asosan yirik shaharlar va gavjum aholi manzillarida to‘planganligi (yirik shaharlar jami ko‘rsatilgan xizmatlarning 62,1% ni tashkil etgan), capital qo‘yilmalar, ilmiy-texnika va inson resurslari salohiyatining zayifligi, hamda xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshlik darajasining pasayishi kuzatilmoqda. Xususan, xizmatlar sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalarining iqtisodiy xavfsizligining asosiy maqsadi — barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash va moliyaviy resurslarni samarali boshqarishdir. Bu jarayonda xavflarni minimallashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun strategiyalar ishlab chiqish muhimdir. Shuningdek, ichki va tashqi omillardan kelib chiqadigan risklarni boshqarish ham asosiy vazifalardan biridir. Bu maqsadga erishish uchun moliyaviy rejalashtirish va nazorat jarayonlari zarur. Undan tashqari iqtisodiy xavfsizlik va uni ta‘minlash mexanizmini konseptual ravishda belgilab, shuni ta‘kidlash mumkinki, iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning har qanday mexanizmi davlat va mintaqa hokimiyatining, xo‘jalik yurituvchi subyektlar rahbariyatining iqtisodiyotning barqarorligi va barqarorligiga erishish istagi, ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlar va chegaralar tizimi asosida iqtisodiy o‘shir va rivojlanish, shuningdek, qo‘shimcha foyda olish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga eng yaxshi hissa qo‘shadigan afzalliklar, optimal tashqi siyosat yuritishga erishish, shuningdek, samarali milliy va mintaqaviy siyosatni amalga oshirish zarur.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash bu uzluksiz jarayondir va bunda vujudga keladigan zararlarning oldini olish korxonalar uchun doimiy vazifadir. Zarar, xavf-xatar, tahdidlarni oldini olish va korxonada iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash strategiyasi bo‘lishi talab etiladi. Afsuski, bugungi kunda ko‘pgina korxonalar iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash haqida ma‘lumotga ega emaslar, korxonalarda barcha bo‘limlar o‘z faoliyatiga mas‘ulligi bilan cheklanib qolishadi. Rivojlangan davlatlarning yirik kompaniya, konsorsiumga aylangan korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha shtablar faoliyat olib boradi. Aynan bizda xizmat ko‘rsatish korxonalarida iqtisodiy xavfsizligi bo‘limi yuq, korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash shtabi (kengashi) mavjud. Shtab (kengash) korxonalar iqtisodiy xavfsizligi strategiyasini ishlab chiqadi. Strategiyani ta‘minlash uchun korxonalar iqtisodiy xavfsizligi tizimi ishlab chiqiladi va faoliyat yuritadi. Xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi tizimi uning ichki tahdidlari ya‘ni, ilmiy – texnikaviy, ishlab chiqarish salohiyati hamda kadrlar faol va nafaol iqtisodiy tahdidlardan, masalan, korxonaning samarasiz ilmiy – sanoat siyosatidan yoki tashqi muhitda yuzaga kelgan tahdidlardan himoyalanganligi tushuniladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash muammosi, hozirgi vaqtda dolzarb masaladir, chunki korxonaning xavfsizligi bevosita xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyati samaradorligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, bozorda raqobatning kuchayganligi, tovar iste‘molchisini topish, bozor muhitiga moslashish, talab va taklif qoidalariga amal qilishda korxonalar ma‘lum choralar ko‘rishga majbur. Korxonalar risklarini tahlil qilish nafaqat katta moddiy yo‘qotishlarni, balki tuzatib bo‘lmaydigan zararni va hatto bankrotlikdan ham qochish imkonini beradi. Iqtisodiy xavfsizlik biznes faoliyatining ajralmas elementi bo‘lib, korxonaning butun hayoti davomida tadbirkorlik faoliyatiga xos bo‘lgan tahdidlarni boshqarishning murakkab tizimidir. Bu raqobat va iqtisodiy tavakkalchilik sharoitida biznes maqsadlariga erishishni ta‘minlash zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiyotning ayrim subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash va uning holatiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash masalalari ushbu tadqiqotchilar asarlarida ko‘rib chiqilgan: Avdiyskiy V.I., Blank I.A., Grunin O.A., Zelenkov M., Kormishkina L.A., Vechkanov G.S., Kostin V.I., Popov A.I., Gradov A.P., E.A. Oleynikova, V.K. Senchagova, V.I. Yarochkina, V.A. Chernova, L.I. Abalkina, E.A. Glazyev S.Yu., Kozachenko A.V., Ponomaryov V.P., Lyashenko A.N., Belkov A.A., Prokhojev A.A va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Iqtisodiy xavfsizlik masalasini bugungi kunda vatanimiz olimlari ham o‘rganib kelmoqda. Jumladan: Q.X.Abdurahmonov, M.Q.Pardayev, B.A.Abdukarimov, X.P.Abulqosimov, Z.N.Kurbanov, D.I.Ismatov, M.M.Muhammedov, G.Axunova, M.X.Saidov, A.A.Maxmudov, E.N. Xodjayev, A.E.Ishmuhammedov,

A.I.Igamberdiyev, Z.Yu.Aminovlarning ilmiy-tahliliy tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Tadqiqotchilar ishidagi omillar va tahdidlar muammolarini umumlashtirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vositalarini tahlil qilishga o'tishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xizmatlar sohasining rivojlanishida kuzatish, abstrakt, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, ekstropolyatsiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Adabiyotda eng ko'p keltirilgan iqtisodiy xavfsizlik ta'riflaridan biri S.Yu. Glazyev tomonidan shakllantirilgan: “Iqtisodiy xavfsizlik – bu mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, davlat xavfsizligining zarur darajasini va global raqobat sharoitida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustaqil ta'minlash imkoniyatlari nuqtai nazaridan iqtisodiyot va jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari holatidir.”

A.V. Kozachenko, V.P. Ponomaryov va A.N. Lyashenko iqtisodiy xavfsizlikni korxonalar boshqaruvining tashqi muhit o'zgarishlariga o'z vaqtida javob berish qobiliyati deb bilishadi. Ular vaziyatli yondashuv yordamida korxonani o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishida tezkor va adekvat javobning muhimligini ko'rsatishgan. A.A. Belkovning fikriga ko'ra, iqtisodiy xavfsizlik – bu mamlakatning saqlanishi va rivojlanishi kerak bo'lgan holatdir.

Prokhojev A.A. iqtisodiy xavfsizlikni— shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy sohadagi muhim manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish, deya ta'riflagan.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining ta'rifi iqtisodiy xavfsizlik modelini shakllantirish va bu holatda davlat o'zining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini mustaqil ta'minlay oladi. Shuningdek, ayrim iqtisodchilar va mutaxassislar iqtisodiy xavfsizlikni davlat aholi hayoti uchun normal sharoitlarni saqlab turadigan iqtisodiyotning sifatli xususiyati sifatida talqin qiladilar.

Ko'rib turganimizdek, nuqtai nazarlar o'xshashdir, shu sababli iqtisodiy xavfsizlikni mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, davlat xavfsizligi darajasini va global raqobat sharoitida iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlari nuqtai nazaridan iqtisodiyot va jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari holati deb hisoblaymiz. Iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha ilmiy ta'riflar bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Qonunchilikda korxonaning iqtisodiy xavfsizlik darajasi deyarli ajratib ko'rsatilmagan. Buning sababi, bizning fikrimizcha, korxonalar darajasidagi voqealar ko'lamli mamlakat, mintaqalar yoki tarmoq darajasiga nisbatan ahamiyatsiz bo'lishi mumkinligidir. Biroq, xo'jalik yurituvchi subyektlar har qanday darajadagi byudjetlarga soliq to'laydilar, shuning uchun har bir korxonaning holati fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarining bir qismi hisoblanadi. Bu iqtisodiy xavfsizlikni nafaqat davlat, mintaqalar yoki tarmoq darajasida, balki korxonalar darajasida ham ta'minlash zarurati bilan bog'liq.

Mamlakatimiz milliy iqtisodiy tizimining ichki va tashqi muhitini o'rganish, bu bizga iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmining bir qator shartlar va omillarni ajralmas hisobga olishni talab qiladi. Xususan, tashqi vaziyat, bozor sharoitlari, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, tadbirkorlik faoliyati, aholining mentaliteti, jamiyatning davlat va mintaqalar hokimiyatiga bo'lgan ishonch darajasi va boshqalarni hisobga olish kerak. Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq barcha jarayonlarga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biri bu globallashtirishdir.

Globallashuvning iqtisodiy xavfsizlik mexanizmini shakllantirish va rivojlantirishga ta'siri, amaldagi norma va huquqiy bazaning haqiqatlarga mos kelmasligi, tashqi va ichki tahdidlarga qarshi kurashishga qaratilgan tadbirlar o'rtasida o'zaro bog'liqlikning yo'qligi. Globallashuv va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun vakolatli va samarali raqobat strategiyasini ishlab chiqish zarur, bu quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- iqtisodiyotni tarkibiy modernizatsiya qilish;
- innovatsion ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash;
- investitsiyalarni qulay kiritish mihitini yaratish;
- huquqiy bazani takomillashtirish;
- davlat boshqaruvi organlarining iqtisodiyotning innovatsion tarmoqlari va sohalarida faollikning namoyon bo'lishi nuqtai nazaridan rag'batlantirilishi;
- savdo bozori va qulay tadbirkorlik iqlimining bo'lishi ;
- raqobat strategiyasini ishlab chiqish zarurati;
- inson kapitalini maqsadli shakllantirish;
- jamiyatda axloqiy va madaniy qadriyatlarini rivojlantirish.

Davlatimizda bozor iqtisodiyotining rivojlanishi korxonalarining tashkiliy va huquqiy shaklini tubdan o'zgartirdi. Bu esa o'z navbatida davlat va bozor institutlari bilan o'zaro munosabatlarining tashqi va ichki shart-sharoitlarini tubdan o'rganishni taqozo etmoqda. Bu holat boshqaruv tizimini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi, shuningdek mamlakat va uning fuqarolari, korxonalar iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan choralarni ham ishlab chiqishni taqozo etadi. Hozirgi kunda o'zgaruvchan sharoitlarda deyarli har bir korxonalar iqtisodiy tahdidlarga duch keladi va xavfsizlik juda katta. Xo'jalik yurituvchi subyektlar, korxonalar iqtisodiyotning turli tarmoqlari va hatto mamlakat fuqarolari ham murojaat qilishlari kerak, ularning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlanishi uchun katta sa'y-harakatlarni amalga oshirish zarur. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti o'tkir raqobat va tashqi iqtisodiy muhit sharoitlarining o'zgaruvchanligi bilan tavsiflanadi. Bu holat korxonalar rahbarlaridan o'z bozor strategiyasini doimiy ravishda yangilab turishni, shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha samarali strategiyani shakllantirishni talab qiladi.

O'zgaruvchan bozor muhitida korxonalar o'z iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun tamomila yangi yondashuvlarni izlash zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda (korxonaning faoliyat sohasi qanday bo'lishidan qat'i nazar). Bu risklarni boshqarishning innovatsion usullarini ishlab chiqish, ichki resurslardan, jumladan, inson kapitalidan samarali foydalanish hamda tashqi tahdidlarga nisbatan moslashuvchanlik va moslashish qobiliyatini oshirishni o'z ichiga oladi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini boshqarishda risklarni kamaytirish choralariga, uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish va xavflarni oldindan baholash, ichki nazoratni kuchaytirish, bu jarayonlarga xodimlarni tayyorlash, kadrlarni malaka oshirish va xavfli vaziyatlarga tayyorlash, muayyan xavflarni sug'urtalash orqali moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish va moliyaviy ko'rsatkichlarni doimiy ravishda tahlil qilish va xavflarni nazorat qilish orqali erishish mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotlar xizmatlar sohasida yetarlicha ishlab chiqilmagan tadqiqot sohasini, ya'ni milliy tizimlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, atrof-muhitning eng muhim omillari davlat siyosati va globalashuvni hisobga olgan holda mamlakatning global iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etishini faollashtirish jarayonlarini chuqurroq rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. O'tkazilgan tahlildan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy xavfsizlikni korxonaning holati sifatida talqin qilishda turli asosiy iqtisodiy xavfsizlikni aniqlashda quyidagi yondashuvlarni tahlil qilishimiz zarurdir: aniqlangan raqobatbardosh ustunliklar, himoyalanganlik darajasi, ishlab chiqarish-iqtisodiy tizim holati, faoliyat va korxonalar holati, uning aloqalar tizimida obyektivligi, iqtisodiy tizim holati, manfaatlar himoyasi, yuqori darajadagi faoliyat ko'rsatkichlari, muvozanatni ta'minlash jarayonlarini o'rganish lozimligini ko'rsatadi.

Berilgan ta'rif va tahlillar orqali iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi ta'rifini keltirishimiz joyizdir. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi – bu korxonaning barqaror iqtisodiy va xo'jalik faoliyatini, hamda rejalashtirilgan rivojlanishni ta'minlash uchun mavjud resurslardan eng samarali foydalanish qobiliyati bilan tavsiflangan holati. Bunday yondashuv korxonaning iqtisodiy xavfsizligini belgilashda uning noaniqlik sharoitida faoliyat yuritishiga va belgilangan maqsadlarga erishishiga imkon beradi. Korxonalar tashqi muhitning har qanday, hattoki salbiy ta'sirlariga ham tayyor bo'ladi. Shu bilan birga, u o'zining asosiy faoliyatini davom ettiradi. Mamlakatimizning jahon iqtisodiyotidagi rolini kuchaytirishga qaratilgan kompleks strategiya chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkonini beradi, jumladan: a) ekologik nomlarni tarkibiy modernizatsiya qilish; b) ishlab chiqarish va eksportning xom ashyo yo'nalishini engib o'tish; v) sanoatini texnik-texnologik qayta jihozlash; d) iqtisodiy sohadagi korrupsiya va kriminallashtirish hodisalarini engib o'tish; e) biznes va iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish chet ellik investorlarning ishonchli sherik sifatida qiziqishini jalb qilish va boshqa tadbirlar orqali uning tashqi va tashqi tomondan himoyalashining maqbul darajasiga erishish imkoniga ega bo'lishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchalari va iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi iqtisodchilar va mutaxassislar tomonidan berilgan ta'riflarni tahlil qilish natijasida iqtisodiy xavfsizlik – bu korxonaning barqaror iqtisodiy va xo'jalik faoliyatini, hamda rejalashtirilgan rivojlanishni ta'minlash uchun mavjud resurslardan eng samarali foydalanish qobiliyati bilan tavsiflangan holati ekanligi aniqlandi. Turli sohalarda korxonalar yuqori texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalarni joriy etishga moslashuvchan va tezkor javob bera oladigan innovatsion

infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqot natijalaridan foydalanishning boshqa yo'nalishlari innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va shakllantirish sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining eng muhim tendensiyalarini tahlil qilish va prognoz qilish, mamlakat iqtisodiyotini davlat-huquqiy tartibga solishning yangi modelini tuzish yoki mavjud modelini tuzatish va boshqalarni alohida e'tiborga olish joyizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida”gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022 yil 1-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2019 yil 7 martdagi PQ–4231-son Qarori.
4. Iqtisodiy xavfsizlik: Darslik / T.T. Jo'rayev, Sh.R. Qobilov, Sh.A. Allayarov, X.S. Asatullayev; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2020
5. Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik: Nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. - T.: Noshirlik nashriyoti, 2019 - 620 b.
6. Abulqosimov X.G., Rasulov T.S. va b. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va raqobatbardoshligini ta'minlashning barqaror yo'nalishlari. Monografiya. - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi". 2019. - 395 b.
7. Абулқосимов Х.П. Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. - Т.: «Академија», 2012. -102 б.
8. V. Pankov., Iqtisodiy xavfsizlik: mohiyati va ko'rinishlari. Xalqaro ishlar, 2010 yil, 12-son, 107-119-b.
9. Prudius E. V., “Iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi va tizimi to'g'risida”, “Huquq sohasidagi biznes”, 2008 yil, № 1, B.66 -70.
10. Gubareva I. O. Milliy iqtisodiyotning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha strategik ko'rsatmalarni shakllantirish / I. O. Gubareva // Iqtisodiyotning dolzarb muammolari. – 2015. - No. 6. - pp. 122-129.
11. Vechkanov G.S. ekonomicheskaya bezopasnost: Uchebnik dlya vuzov. –SPb. Piter 2007
12. L.N.Xolikova, B.A.Iskandarov Iqtisodiy xavfsizlik O'quv qo'llanma 2023
13. Stat.uz. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
14. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi" konsepsiyasining genezisi / E. N. Bobarykina, N. G. Chernenko // Iqtisodiyot, texnologiya, tabiat va jamiyatdagi modellar, tizimlar, tarmoqlar. – 2017. – 2-son. –4–21-b.
15. Ivanova, L. K. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi / L. K. Ivanova // Iqtisodiy xavfsizlik: konsepsiya, standartlar. – 2013. – T. 17, No 7 (60). – 30–33-betlar.
16. Belkov, O. A. Milliy xavfsizlik konsepsiyasining konseptual va kategorik apparati / O. A. Belkov // Xavfsizlik. – 2004. – No 3. – B. 91–94.
17. Evseeva, A. Yu. Iqtisodiy xavfsizlik va uning tadbirkorlik faoliyati uchun ahamiyati / A. Yu., S. V. Kotik. – 2012. – No 3. – B. 46–48.
18. Blank, I. A. Korxonaning moliyaviy xavfsizligini boshqarish / I. A. Blank. - M.: SmartBook, 2013. – 776 b.

<p style="text-align: center;">З.Шодманова</p> <p style="text-align: center;">Изучение и совершенствование мер по обеспечению экономической безопасности предприятий сферы услуг</p> <p>Аннотация: В данной статье представлены несколько моментов по обеспечению экономической безопасности предприятий сферы услуг и проведен анализ решений сегодняшних проблем и их более глубокое изучение в предотвращении рисков и достижении экономической безопасности. Изучены различные подходы к защите экономической безопасности предприятий сферы услуг от внутренних и внешних угроз и достижению безопасности.</p> <p>Ключевые слова: экономическая безопасность, управление рисками, сотрудники службы безопасности, эффективная конкурентная стратегия, информационная безопасность, глобализация и международные угрозы, страхование рисков, внутренние и внешние угрозы, гибкость.</p>	<p style="text-align: center;">Z. Shodmanova</p> <p style="text-align: center;">Study and improvement of measures to ensure economic security of service sector enterprises</p> <p>Abstract: This article presents several aspects of ensuring the economic security of service sector enterprises, analyzing solutions to current issues and their in-depth study to prevent risks and achieve economic security. Various approaches to protecting the economic security of service sector enterprises from internal and external threats and achieving security have been explored.</p> <p>Keywords: economic security, risk management, security service employees, effective competitive strategy, information security, globalization and international threats, risk insurance, internal and external threats, flexibility.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 05.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.